



MILLIY HUNARMANDCHILIKNING YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIDAGI O'RNI VA IMKONIYATLARI

Meliboyeva Sarvinoz

Qo'qon davlat universiteti

katta o'qituvchisi, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20710517>

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy hunarmandchilikning yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi o'rni va imkoniyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: milliy hunarmandchilik, ma'naviy tarbiya, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ma'naviy meros, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi, vatanparvarlik

Bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy barkamol, vatanparvar, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, millat kelajagi va mamlakatning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan yoshlarning ma'naviy dunyosi, axloqiy fazilatlari va milliy o'zligini anglash darajasiga bog'liqdir. Shu bois ta'lim-tarbiya jarayonida xalqning boy tarixiy va madaniy merosidan samarali foydalanish, yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday muhim tarbiyaviy vositalardan biri milliy hunarmandchilik hisoblanadi.

Milliy hunarmandchilik xalqning asrlar davomida shakllangan mehnat tajribasi, ijodiy tafakkuri va estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan noyob madaniy hodisadir. O'zbek xalqining kulolchilik, kashtachilik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi, misgarlik, gilamdo'zlik, do'ppido'zlik va boshqa hunarmandchilik turlari xalqimizning boy ma'naviy merosi sifatida qadrlanadi. Ushbu hunarlar nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki yoshlarni mehnatsevarlik, sabr-toqat, mas'uliyat, halollik va go'zallikni qadrlash ruhida tarbiyalashning samarali vositasi ham hisoblanadi.

Tarixan milliy hunarmandchilik yosh avlodni hayotga tayyorlash, ularga kasb-hunar o'rgatish va ma'naviy fazilatlarni singdirishning muhim shakli bo'lib xizmat



qilgan. Ayniqsa, ustoz-shogird an'anasi orqali hunar sirlarini o'rgatish bilan bir qatorda insoniy fazilatlar, odob-axloq me'yorlari va milliy qadriyatlar ham yoshlar ongiga singdirib borilgan. Ustozlar o'z shogirdlariga nafaqat kasb sirlarini, balki mehnatga muhabbat, jamiyat oldidagi mas'uliyat, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat kabi fazilatlarni ham o'rgatganlar. Natijada hunarmandchilik yoshlarning ma'naviy kamolotida muhim omil vazifasini bajargan.

Globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi davrda ayrim milliy qadriyatlarning unutilib borishi, ommaviy madaniyatning keng tarqalishi va axborot oqimining ortishi yoshlar tarbiyasiga yangi talablarni qo'ymoqda. Bunday sharoitda milliy o'zlikni saqlash, yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalash hamda ularning ma'naviy immunitetini mustahkamlash zarurati yanada ortmoqda. Shu nuqtai nazardan milliy hunarmandchilikning tarbiyaviy imkoniyatlarini chuqur o'rganish va undan samarali foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash va yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Hunarmandchilik markazlari faoliyatining rivojlantirilishi, ustoz-shogird an'analarning tiklanishi, kasb-hunar ta'limi tizimining takomillashtirilishi hamda yoshlarning ijodiy tashabbuslarini rag'batlantirishga qaratilgan dasturlar ushbu yo'nalishdagi ishlarning samaradorligini oshirmoqda. Bu esa milliy hunarmandchilikning yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi o'rni va imkoniyatlarini yanada chuqurroq tadqiq etishni talab etadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, milliy hunarmandchilik yoshlarning estetik didini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish va mehnat madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Hunarmandchilik bilan shug'ullanish jarayonida yoshlar milliy san'at namunalarini o'rganadi, xalqning tarixiy tajribasi bilan tanishadi hamda o'z milliy identifikatsiyasini



anglay boshlaydi. Shu jihatdan milliy hunarmandchilik yoshlar ma'naviy kamolotining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolada milliy hunarmandchilikning yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi o'rni, uning tarbiyaviy va pedagogik imkoniyatlari, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati hamda zamonaviy ta'lim tizimida undan foydalanishning samarali yo'llari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Hunarmand" xalq hunarmandlari uyushmasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida"gi (1997 yil 4 iyun) 282-son Qarorida "Hunarmand" uyushmasi va uning hududiy bo'limlari apparatini mablag' bilan ta'minlash uyushmaning o'z tadbirkorlik faoliyati va uning a'zolari badallari hisobiga tashkil topadigan mablag'laridan amalga oshirilishi ko'rsatib o'tildi.

2009 yilning 29 iyulida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 216-son Qaroriga ko'ra oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik oila byudjetlari daromadlarini ko'paytirish, ish bilan band bo'lmagan aholini ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish va xalq hunarmandchiligining ko'p asrlik an'analari saqlab qolishning eng samarali vositalaridan biri deb e'tirof etilib, ularni rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat ekaniga e'tibor qaratildi.

Tegishli hujjatga muvofiq "Oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom qabul qilindi. Nizomda tegishli faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilishda muhim tayanch asos bo'lgan tushunchalar sharhlandi. Jumladan:

oilaviy tadbirkorlik – er-xotin tomonidan ularga birgalikdagi umumiy

mulk huquqi bilan tegishli bo'lgan ularning umumiy mulki negizida amalga oshiriladigan hamda er-xotinning va ularga yordam beruvchi oila a'zolarining shaxsiy



mehnatiga asoslangan, yuridik shaxs bo'lmagan jismoniy shaxslarning birgalikdagi tadbirkorlik faoliyati;

oilalar – er-xotin, ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar hamda 15 yoshdan oshgan, shu jumladan farzandlikka olingan bolalar;

hunarmandchilik faoliyati (hunarmandchilik) – yuridik shaxs bo'lmagan jismoniy shaxslarning hunarmandchilik buyumlari yoki tovarlari (ishlari, xizmatlari)ni ishlab chiqarish bo'yicha faoliyati;

hunarmand (usto-hunarmand, usto) – mustaqil ravishda yoki shogirdlari yordamida maxsus ko'nikmalar, asboblari va kichik mexanizatsiya vositalaridan foydalanishga asoslangan an'anaviy texnologiyalar asosida buyumlarning funktsional xususiyatlarining tarixan qaror topgan talablariga hamda milliy estetik normalarga javob beradigan hunarmandchilik faoliyati buyumlari yoki tovarlari (ishlar, xizmatlar)ni tayyorlovchi jismoniy shaxs;

hunarmandning shogirdi – 15 yoshdan oshgan, hunarmanddan hunarmandchilik faoliyati buyumlari yoki tovarlari (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bo'yicha faoliyatni o'rganayotgan jismoniy shaxs.

Shu bilan birga tegishli Nizomda oilaviy tadbirkorlikda hamda hunarmandchilik faoliyatini yo'lga qo'yish jarayoni va uni tashkil qilishga qo'yiladigan talablar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi (2012 yil 19 iyul) 225-son Qaroriga ko'ra “Oilaviy tadbirkorlikda yoki hunarmandchilik faoliyatida qatnashayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun bir haftada 36 soatlik, 15 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun esa – bir haftada 24 soatlik ish vaqtidan oshmasligi” belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 25 maydagi “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi tartibi to'g'risida”gi Nizomga



qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Qaroriga asosan 24 ta yo'nalishdagi hunarmandchilik mahsulotlari ekspertiza yig'imidan ozod etildi. Musiqa asboblari, gilam, kashta, zargarlik buyumlariga esa yig'implar miqdori 2-3 barobarga kamaytirildi, natijada hunarmandlar moddiy manfaat ko'rdi hamda mahsulotlarni eksport qilishga yanada keng imkoniyat yaratildi.

2012 yilning 26 aprel kuni O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinish mahalliy hunarmandlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun yanada keng imkoniyatlarni yaratdi. Mazkur Qonunda "Oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati" oilaviy tadbirkorlik sifatida e'tirof qilindi. Oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish ishtirokchilarning ixtiyoriy yondashuviga asoslanishi, u yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkinligi, oilaviy korxona yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli ekani ko'rsatib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2019 yil 28 noyabr) PQ-4539-son Qarorida mamlakatida milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, bu orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an'alarini to'liq saqlab qolish, band bo'lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni hunarmandchilikka keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash maqsadi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, hujjatda respublika hududlarini hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashtirish va ularga hunarmandchilik mahsulotlarini chet el bozorlarida namoyish etish va sotish uchun ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari tegishli tashkilotlar (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, "Hunarmand" uyushmasi, Madaniyat



vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi)ga biriktirish maqsadga muvofiq deb topildi.

Eng muhim jihati mazkur hujjat g'oyasiga ko'ra respublikada faoliyat olib borayotgan xalq amaliy san'ati ustalarining milliy katalogini tuzish va turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar reestrini joriy qilish yo'lga qo'yildi.

“Xalq amaliy san'ati ustalarining milliy katalogi”ga quyidagi shaxslar kiritiladi: nufuzli xalqaro ko'rgazma, ko'rik-tanlov kabi tadbirlarning g'olib yoki laureatlari; tegishli sohada san'at va fan arbobi hamda akademiklarning tavsiyasiga hamda “O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi” faxriy unvoniga ega shaxslar.

“Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar reestri”dan esa quyidagi shaxslar o'rin egallaydi: turistik marshrutdagi manzil bo'yicha o'z ustaxonasida yoki ijara asosida faoliyat yurituvchi; o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni galereyalar, hunarmandchilik mahsulotlari do'konlari, mahalliy va xorijiy savdo uylariga shartnoma asosida namoyish va sotish uchun qo'yayotgan; “Xalq amaliy san'ati ustalarining milliy katalogi”ga kiritilgan; “Hunarmand” uyushmasining Badiiy kengashi tomonidan tavsiya etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi (2023 yil 12 iyun) PF-91-son Farmoni esa mamlakatda “hunarmandchilikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususan hunarmandlarni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, ularni zarur xomashyo va moliyaviy resurslar bilan uzluksiz ta'minlash, hunarmandchilik mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun infratuzilma yaratish va bozorlarni kengaytirish hamda aholini hunarmandchilikka keng jalb etish”¹ maqsadini ko'zlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳолини хунармандчиликка жалб қилиш ва хунармандчилик фаолиятини ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги (2023 йил 12 июнь) ПФ-91-сон Фармони // <https://lex.uz/ru/docs/6490321>.



1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 56 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
4. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent: Mehnat, 1991. – 384 b.
5. Bulatov S.S. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 168 b.
6. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. Ocherki iskusstva Sredney Azii. – Moskva: Iskusstvo, 1982. – 288 s.
7. Azimova B. O'zbekiston amaliy san'ati tarixi. – Toshkent: Fan, 2009. – 256 b.
8. Xakimov A.A. O'zbekiston san'ati tarixi. – Toshkent: Sharq, 2010. – 320 b.
9. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 280 b.
10. Rasulov M. Xalq hunarmandchiligi va badiiy meros. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 224 b.
11. Abduqodirov A.A. Pedagogik texnologiyalar va ta'lim innovatsiyalari. – Toshkent: Fan, 2019. – 240 b.
12. Musurmonova O. Oila ma'naviyati va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 196 b.
13. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.
14. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000. – 182 b.
15. Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 312 b.



16. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – 480 b.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid farmon va qarorlari to'plami. – Toshkent, 2019.
18. "Hunarmand" uyushmasi faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. – Toshkent, 2022.
19. UNESCO. Traditional Craftsmanship and Intangible Cultural Heritage. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 145 p.
20. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006.
21. Feruza Aminovna Turakulova. Free Time of Students in Qualification Practicecontent Organization Technology. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP) Volume: 02 Issue: 10 | 2023 ISSN: 2751-7551
<http://innosci.org/>